



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILINI O‘RGATISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI

Qahramonov Aliboy Yolgoshevich

Filologiya fanlari nomzodi, ISFT instituti katta o‘qituvchisi

Umrzoqova Mamura Rustam qizi

Abdullayeva Sanobar Satimvayevna

Nosirova Xakimaxon Zokirjon qizi

ISFT instituti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 3-kurs talabalari

Annotatsiya: Ta‘limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta‘lim inson faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma‘noni bildiradi. Ya‘ni ta‘lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish ularda dunyoqarash, fikr va e‘tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o‘stirishdir. Ona tilini o‘rganishda boshlang‘ich ta‘limning o‘rni alohida va u keyingi ta‘limning asosi hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rgatishning mazmuni va vazifalari, o‘qitish usullari haqida malumot berilgan.

Kalit so‘zlar: belgi, yozuv, tovush, boshlang‘ich sinf, ona tili, ta‘lim, metod, savod, o‘qish, yozish, o‘quvchi, imlo, nutq.

Maktablarda ona tili o‘rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo‘p qirrali bo‘lib, ularni bajarish o‘quvchilar ongini o‘stirishga, ularga g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo‘naltirilgan. Ona tilini o‘rgatish natijasida o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to‘g‘ri yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o‘quv predmeti sifatida o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, o‘quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan umumta‘lim vazifalari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini quyidagi bilimlar tashkil etadi:

- o‘zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik);
- so‘zlarning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi haqidagi (grammatik, ya‘ni morfologik va sintaktik);



- soʻzning morfemik tarkibi va soʻz yasash usullari haqidagi (soʻz yasashga doir);
- soʻzlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik);
- oʻzbek tilining toʻgʻri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion).

Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, soʻz yasashga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon boʻladi. Bundan tashqari, oʻzbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa koʻnikma va malakalarni ham oʻz ichiga oladi.

Tilni oʻrganish jarayonida oʻquvchilarda boshqa koʻpgina oʻquv predmetlari uchun umumiy boʻlgan koʻnikmalar (predmetlararo koʻnikmalar)ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo koʻnikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu koʻnikmalarni oʻquvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning oʻquv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus koʻnikmalar bilan predmetlararo koʻnikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda oʻquv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

Beriladigan bilim va oʻquvchilarda hosil qilinadigan maxsus koʻnikmalar maktab dasturlari va davlat taʼlim standartida qayd etilgan.

Boshlangʻich sinflarda oʻrganish uchun tilni ongli egallashga va oʻquvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin boʻladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida oʻquvchilar soʻzning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning oʻziga xos xususiyatlarini, soʻzda tovushning maʼnoni farqlashdagi ahamiyatini toʻgʻri tushunishga imkon beradigan bilimlarni oʻzlashtiradilar, shuningdek, ularga soʻzning tovush va grafik shakli oʻrtasidagi nisbat (bogʻlanish)ni ongli aniqlash, soʻzni toʻgʻri yozish imkoniyati yaratiladi. Morfologiya sohasidan ham soʻzni ongli oʻzlashtirish, uni toʻgʻri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega boʻlgan bilimlar tanlangan. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari I sinfdan boshlab soʻz turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, feʼl)ni har xil saviyada oʻrganadilar.

Sintaksidan dasturga nutq birligi sifatida gap haqidagi, gapda soʻzlarning bogʻlanishi, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklar haqidagi bilimlar kiritilgan. Soʻzning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va soʻzda bir-biriga taʼsirini boshlangʻich sinf oʻquvchilari tushunadigan



va soʻzlarni toʻgʻri yozishda foydalanishlari uchun zarur boʻlgan hajmda maʼlumot berilgan.

Dasturda “Leksika” boʻlimi alohida berilmagan, ammo oʻquvchilar soʻzlarning leksik-semantik guruhlarini (sinonimlar, antonimlar) haqida, ularning leksik maʼnolari haqida soʻz turkumlari va soʻz tarkibini oʻrganish jarayonida maʼlumot oladilar.

Boshlangʻich sinflar ona tili kursi 1-4-sinflarda tilning hamma tomonlari oʻzaro bogʻliq holda oʻrganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va soʻz yasalihi haqida elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga oʻzaro taʼsir etadigan bir butun hodisa sifatida oʻrganishni taqozo etadi. Tilni oʻrganishga bunday yondashish taʼlim jarayonini oʻquvchilar nutqini oʻstirish vazifasini hal etishga yoʻnaltirish imkonini beradi.

Dasturning “Grammatika, imlo va nutq oʻstirish” boʻlimi har bir sinfda quyidagicha qismlarni oʻz ichiga oladi: “Tovushlar va harflar”, “Soʻz”, “Gap”, “Bogʻlanishli nutq”. Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har toʻrt sinfda oʻrganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratiladi. 1-sinfda fonetika va grafikaga oid mavzularni oʻrganishga katta oʻrin beriladi, chunki oʻquvchilar oʻqish va yozish jarayonini egallaydilar. 3- sinfda soʻzning morfemik tarkibi va gapni oʻrganish muhim hisoblanadi. Soʻz yasalihi doir bilimlar asosida oʻquvchilarda soʻzning leksik maʼnosiga, undan nutqda foydalanishga ongli munosabat oʻsadi. 4-sinfda soʻz turkumlarini oʻrganish birinchi oʻringa qoʻyiladi (morfologik bilim chuqurlashtiriladi, otlarning egalik va kelishik qoʻshimchalarini, feʼllarning tuslovchi qoʻshimchalarini toʻgʻri yozish malakalari shakllantiriladi).

Bogʻlanishli nutq ustida toʻrt yil davomida grammatik va orfografik materiallarni oʻrganish bilan bogʻliq holda reja asosida ish olib boriladi.

Ona tili darslarida til hodisalari maʼnosi (semantikasi), qurilishi, vazifasi jihatidan oʻrganiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qoʻydi. Barcha sohalaridagi kabi taʼlim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Boshlangʻich taʼlim boʻyicha Yangi tahrirdagi Davlat taʼlim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlangʻich taʼlim darsliklari va metodik qoʻllanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini oʻtamoqda.

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining "Kirish" qismida *"Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafasatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi"*, – deb alohida ta'kidlangan.

Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Davlat ta'lim standartida ta'kidlanganidek, "Boshlang'ich ta'lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talab"da ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. SHu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmuni mazkur bosqichiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992
2. K.Qosimova. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1985-yil.
3. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. SH.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. T., Noshir, 2009.
4. Mehridinov Z. Isamuhammedov O. "Boshlang'ich ta'lim saboqlari" Toshkent 2014.
5. R.Qosimova, Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish, T.: 1964.
6. A.Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Toshkent. Innovatsiya – Ziyo. 2020.